



**Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik
subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari**


2026-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 10 795 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi






**Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan
kichik korxona va mikrofirmalar soni**

	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1- iyul holatiga, birlik
Sirdaryo viloyati	9 896	10 795
Guliston shahri	2 446	2 619
Shirin shahri	214	233
Yangiyer shahri	753	868
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin tumani	657	694
Boyovut tumani	862	910
Sayxunobod tumani	670	647
Guliston tumani	722	795
Sardoba tumani	912	1 030
Mirzaobod tumani	905	992
Sirdaryo tumani	1 212	1 377
Xovos tumani	543	630




Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-iyun oylarida 1 144 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida 474 ta, xizmatlarda 306 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 201 ta, sanoatda 114 ta hamda qurilishda 49 ta tashkil etilgan.




Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil yanvar-iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar- iyun oylarida, birlik
Sirdaryo viloyati	1 007	1 144
Guliston shahri	266	298
Shirin shahri	20	7
Yangiyer shahri	78	90
Oqoltin tumani	56	52
Boyovut tumani	75	85
Sayxunobod tumani	61	60
Guliston tumani	55	78
Sardoba tumani	89	126
Mirzaobod tumani	117	118
Sirdaryo tumani	138	159
Xovos tumani	52	71

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 69,1 % ni tashkil qilib, 2025- yilning tegishli davriga nisbatan 4,2 % ga ko'paygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7 498,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 54,1 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 106,3 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin (100,0 %), Boyovut (97,3 %), Xovos (87,1 %), Mirzaobod (68,0 %) va Guliston (66,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 3 058,1 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 82,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 112,1 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (100,0 %), Guliston shahar (98,8 %) va Sayxunobod (95,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 8 035,6 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 69,6 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 130,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Yangiyer shahar (94,4 %), Oqoltin (84,3 %), Sayxunobod (83,6 %) va Sirdaryo (82,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati 2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 7 767,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,3 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 101,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Shirin shahar (99,8 %), Sayhunobod (98,8 %), Boyovut (98,3 %), Guliston shahar (97,8 %) va Guliston (98,5 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 2 824,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining ulushi 74,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 105,6 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Shirin shahri (100,0 %) Oqoltin (99,2 %), Sirdaryo (84,4 %) tumanlari hamda Yangiyer (80,4 %) va Guliston (80,3 %) shaharlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 6 457,4 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 67,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 115,9 % ni tashkil qildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 116,7 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 66,9 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 356,3 mln AQSH dollarini yoki jami importning 77,4 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Guliston – 99,9 %, Sayxunobod – 99,6 %, Boyovut – 99,3 %, Xovos – 96,1 %, Oqoltin – 93,2 % va Sirdaryo tumanlarida – 77,5 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,8 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,9 % ni tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 87,1 % ni tashkil etgan bo'lib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,4 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,6 % ni tashkil qildi.



2026-yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,1 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2026-yilning II choragida 8,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, umumiy iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan 53,6 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan 33,2 % ni, umumiy iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholaganlar 4,8 % ni tashkil qildi.

Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy




iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalar ulushi

2022-yilning II choragida 42,3 % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2026-yilning II choragida 48,2 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning II choragida 52,1 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning II choragida 49,2 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning II choragida 5,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich 2,6 % ni yoki 3,0 birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning II chorak davomida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)



Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida baholanishi


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 1,5 % ni, xizmatlarda – 14,7 % ni, savdoda – 9,8 % ni, sanoatda – 9,2 % ni va qurilish sohasida – 6,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 52,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 60,0 % ni, qurilishda – 45,3 % ni, sanoatda – 52,3 % ni va savdoda – 58,5 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 27,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 35,4 % ni, qurilishda – 41,3 % ni, sanoatda – 32,1 % ni va savdoda – 29,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 4,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,1 % ni, qurilishda – 6,7 % ni, sanoatda – 6,4 % ni va savdoda – 2,4 % ni tashkil etdi.




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, keyingi chorak uchun o'zgarishlar istiqbolini yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi – 40,0 % ni, xizmatlarda – 52,5 % ni, savdoda – 50,0 % ni, sanoatda – 50,5 % ni va qurilish sohasida – 46,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 45,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 56,9 % ni, qurilishda – 50,7 % ni, sanoatda – 46,8 % ni va savdoda – 47,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb baholagan korxonalarning ulushi xizmatlar sohasida – 1,6 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,1 % ni, qurilishda – 2,6 % ni, sanoatda – 2,7 % ni va savdoda – 2,4 % ni tashkil etdi.



**Umumiy iqtisodiy vaziyatini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida (Keyingi
chorak uchun o'zgarishlar istiqboli) baholanishi**



**VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy
tushuntirishlar va metama'lumotlar**

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.